Tajekeev Ziynatdin Kobeyzinovich	



TAHLIIY AMALLARNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Tajekeev Ziyatdin Kobeyzinovich

Qoraqalpoq davlat universiteti

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

ORCID: 0009-0009-3995-4753

Annotatsiya. Ushbu maqola auditda tahliliy amallarni qo'llash hamda ularning metodologik tomonlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada batafsil tekshiruvlarga sarflanadigan auditor vaqti va mehnatini maqbul darajaga kamaytirish uchun tahliliy amallardan foydalanish taklif etilgan. Audit tekshiruvlarida tahliliy amallar yordamida kutilgan qiymatni aniqlash va risklarni oldindan aniqlashga va hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tahliliy amallar, kutilgan qiymat, muhim og'ishish, asosiy vosita, tovar moddiy zaxiralar, regression tahlil, Z – model, M- model, mohiyatan tekshiruv, nazorat testlari, audit, muhimlik, xalqaro audit standartlari.

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам применения аналитических процедур в аудите и совершенствования их методологических аспектов. В статье предлагается использовать аналитические процедуры для снижения времени и труда аудитора, затрачиваемых на детальные проверки, до оптимального уровня. Определение ожидаемой стоимости с помощью аналитических процедур при аудиторских проверках служит для предварительного выявления рисков и обеспечения достоверности отчетов.

Ключевые слова: аналитические процедуры, ожидаемая стоимость, существенное отклонение, основное средство, товарно-материальные запасы, регрессионный анализ, Z-модель, M-модель, проверка по существу, контрольные тесты, аудит, существенность, международные стандарты аудита.

Annotation. This article discusses the application of analytical procedures in auditing and the improvement of their methodological aspects. The paper proposes using analytical procedures to reduce the auditor's time and labor spent on detailed audits to an optimal level. Determining the expected value through analytical procedures during audit procedures to pre-identify risks and ensure the reliability of reports.

Key words: analytical procedures, expected value, significant deviation, fixed asset, inventories, regression analysis, Z model, M model, substantive tests, control tests, audit, materiality, international auditing standards.

KIRISH

O'zbekistonda auditorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlar natijasi o'laroq auditorlik tekshiruvlari va turdosh xizmatlar ko'rsatish sohasi sifat hamda xalqaro amaliyotga integratsiyasi darajasi bo'yicha bir qancha yuqoriladi.

O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida «auditorlik tashkilotlarining xalqaro auditorlik tarmoqlariga jalb etilganlik darajasini oshirish, shu jumladan auditorlik tashkilotlarini, auditorlarni auditning xalqaro standartlarini qo'llash masalalarida faol uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni tashkil etish» vazifasi belgilab berilgan.

Mazkur vazifani sifatli amalga oshirishda audit amaliyotida qo'llashga qabul qilingan auditning xalqaro standartlari talablarini bevosita amaliyotga joriy etish va qo'llash, metodologik yechimlar ishlab chiqish, auditorlik dalillarini olishda xalqaro tajribada samarali audit amallaridan hisoblangan tahliliy amallar usullarini qo'llash xususiyatlarini ochib berish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini aniqlashda samarali usullarni qo'llash orqali audit tekshiruvlari qamrovini, resurs tejamkorligini va sifatini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A. X. Sattorov "Auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish bosqichlari"ni olti bosqichga bo'lib ko'rsatadi. Ular: auditorlik tekshiruvini o'tkazishning dastlabki bosqichi, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish, ichki nazorat tizimini baholash, moliyaviy hisobotlarni tekshirish, auditorlik tekshiruvini yakunlash hamda sifat nazoratidan o'tkazish bosqichlaridir.



Moliyaviy hisobotlarning audit metodologiyasi bo'yicha N. Sh. Xajimuratov moliyaviy hisobot auditini 4 ta bosqichga bo'lgan holda, ya'ni moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish, ichki nazorat tizimiga baho berish, moliyaviy hisobot moddalarini tekshirish va moliyaviy hisobot auditini yakunlash deb tasniflaydi. Ushbu bosqichlarning tarkibiy tuzilmasini o'rganib chiqqanimizda mijozni qabul qilish bo'yicha o'rganishlar haqida to'xtalib o'tilmagan hamda audit bosqichlarida yoki uning tarkibida tahliliy amallarni qo'llash masalasi ko'rib chiqilmagan.

I. H. Choriyev auditorlik faoliyatida tahliliy amallarni takomillashtirish mavzusida olib borgan tadqiqot ishida tahliliy amallarni bajarishni besh bosqichda o'tkazish algoritmini taklif qilgan. Ushbu tahliliy amallarni qo'llash algoritmidan audit o'tkazish bosqichlariga uyg'unlik saqlanmagan va tahliliy amallarni ko'proq moliyaviy hamda iqtisodiy tahlilga o'xshatish kuzatiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida dialektika, analiz va sintez, abstraksiya, mantiqiy fikrlash, monografik kuzatish, ekspert baholash, manbalarni sharhlash, hujjatlar va faoliyat natijalarini o'rganish kabi nazariy va empirik usullar, shuningdek iqtisodiy tahlil, korrelyatsion-regression tahlil hamda evristik usullar kabi tadqiqot predmetiga xos xususiy usullardan foydalanilgan.

Bizningcha, tahliliy amallarni qo'llashni to'rtta bosqichda amalga oshirish ham XAS talablariga, ham xalqaro tajribalarni inobatga olishga olib keladi. Xalqaro manbalarni o'rganganimizda, asosan, uch bosqichda tashkil qilish belgilangan. Lekin bunday holatda auditorlik kompaniyasining mijozni dastlabki o'rganishi, agar u oldindan mijoz bo'lgan bo'lsa, u bilan hamkorlikni davom ettirish bo'yicha qaror qabul qilinishi kabi auditor harakatlari e'tibordan chetda qoladi.

Binobarin, dastlabki o'rganish ham ma'lum darajada mehnat xarajatlarini taqozo qiladigan asosiy bosqich hisoblanadi.

O'tkazilgan monografik tadqiqotlarni tahlil qilish va manbalar sharhi shuni ko'rsatadiki, audit jarayonini to'rtta bosqichga bo'lib qarash to'g'ri hisoblanadi (1-jadval). Tahliliy amallarni moliyaviy hisobotlar tekshiruvida qo'llashda to'rtta ketma-ketlikka rioya etish audit sifatini oshirishga hamda 520-sonli XAS talablariga mos ravishda audit tekshiruvini amalga oshirishga olib keladi.

1 - jadval

Auditorlik tekshiruvini tashkil qilish bosqichlari¹

Bosqichlar	I bosqich	II bosqich	III bosqich	IV bosqich
Muhim masalalar	Dastlabki o'rganishlar	Rejalashtirish	Audit o'tkazish	Auditni yakunlash
Bajariladigan ishlar majmui	Moliyaviy hisobotlar va buxgalteriya hisobi, nomoliyaviy ma'lumotlar, ta'sis hujjatlari bilan tanishish, oldingi auditorlar bilan suhbarlar o'tkazish, soha ma'lumotlari, makro (mikro) ma'lumotlar, hamkorlar va raqobatchilar to'g'risida ma'lumotlari, oldingi audit materiallari, hisob siyosati, soliq tekshiruvlari natijalari, ichki audit materiallari bilan tanishish	Shartnoma tuzish, dastur tayyorlash, umumiy muhimlikni aniqlash, risk baholashlari o'tkazish, tanlov ko'lami aniqlash	Auditorlik dalillarni to'plash, ichki va nazorat riskini baholash, tahliliy amallar o'tkazish, dastlabki farazlarni tekshirib borish, risklarga javob harakatlarini amalga oshirish, mohiyatan testlar va nazorat testlarini o'tkazish	Faoliyat uzluksiz-ligi va keyingi hodisalar o'rganila-di, kutiladigan qiymat-larga mosligi tekshiriladi



Qo'llaniladigan tahliliy amallar usullari	Taqqoslash, koeffitsiyentlar tahlili, soddalashtirilgan moliyaviy hisobot, kreativ tahlil, trend tahlili	Mantiqiylik tahlili, trend tahlili, variatsion tahlili, koeffitsiyentlar tahlili	Regression tahlil, Mantiqiylik tahlili, trend tahlili, evristik (kreativ) usullar, Benford Qonuni, vaqt seriyasi tahlili	Mantiqiylik tahlili, Taqqoslash, kreativ tahlil
---	--	--	--	---

Xususan aytganda, tahliliy amallarning XAS va maxsus adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatdiki, audit tekshiruvda tahliliy amallarni dastlabki rejalashtirishdan tortib audit tekshiruvining nihoyasigacha bo'lgan jarayonda qo'llab borish maqsadga muvofiqdir. Auditning xalqaro standartlarida auditor auditni rejalashtirish va umumiy tekshirish bosqichlarida tahliliy amallarni qo'llashi kerakligi ta'kidlab o'tilgan. Tahliliy amallar ikki bosqichda — rejalashtirish va audit jarayonida — qo'llanilishi ta'kidlanadi.

TMZlar tahliliy amallari yordamida tekshirish bosqichlarida kutilgan qiymatni (prognoz, o'rtacha tarmoq ko'rsatkichi) hisoblashda taqqoslash, soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzish, koeffitsiyentlar tahlili va trend tahlili usullarini qo'llash kutilgan qiymatlarni tekshirib ko'rishga imkon beradi. TMZlarni tahliliy amallar yordamida o'rganishda korxonaning qator yillar bo'yicha ko'rsatkichlari asosida o'rtacha ko'rsatkich taqqoslash uchun kutilgan qiymat sifatida olinishi mumkin. Shuningdek, agar auditorlik kompaniyasida yoki statistik to'plamlarda (internet saytlari) tarmoqda faoliyat olib borayotgan ko'p sonli korxonalarning ko'rsatkichlari mavjud bo'lsa, ularni ham qo'llash mumkin (2-jadval).

Tahliliy amallarning birinchi bosqichida auditor tomonidan ishlab chiqiladigan kutiladigan qiymatni (prognoz ko'rsatkich, o'rtacha tarmoq ko'rsatkichi) taqqoslash, soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzish (vertikal tahlil), koeffitsiyentlar tahlili va trend tahlili usullarini qo'llash kutilgan qiymatlarni tekshirib ko'rishga imkon beradi. TMZlarni tahliliy amallar yordamida o'rganishda korxonaning qator yillar bo'yicha ko'rsatkichlari asosida o'rtacha ko'rsatkich taqqoslash uchun kutiladigan qiymat sifatida olinadi. Shuningdek, kutiladigan qiymat sifatida ayrim hollarda, agar auditorlik kompaniyasida yoki statistik to'plamlarda tarmoqda faoliyat olib borayotgan ko'p sonli korxonalarning ko'rsatkichlari mavjud bo'lsa, ularni ham qo'llash mumkin.

Tahliliy amallarning ikkinchi bosqichida balansdagi tovar-moddiy zaxiralar (1-shakl, 150 s., 160 s., 170 s., 180 s.) qoldig'i bilan kutilgan qiymat o'rtasidagi farqlanish muhim deb tan olinadigan qiymatni aniqlashtirish zarur. Bunda ishchi muhimlikni TMZlar balans moddalariga ichki nazorat va oldingi tekshiruv natijalaridan hamda auditor maqsadidan kelib chiqib joylashtirish ma'qul. Ichki nazorat kuchli bo'lsa va oldingi davrlardagi tekshiruvlar natijalarida salmoqli xato-kamchiliklar yoki firibgarliklar aniqlanmagan bo'lsa, balansdagi TMZ moddalariga ishchi muhimlikning kattaroq darajasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahliliy amallarning uchinchi bosqichida kutilgan qiymat va mijozning schyot qoldiqlari o'rtasidagi farqni hisoblash amalga oshiriladi. Agar tafovut kutilgan qiymatdan jiddiy farqlansa va uning muhimlik darajasidan yuqoriligi aniqlansa, tahliliy amallarning to'rtinchi bosqichi ushbu og'ishishlarning asl sabablarini aniqlashga qaratiladi. Qanday mohiyatan va batafsil testlar o'tkazish masalasi hal qilinadi. Avvalo, auditorlar guruhi ushbu vaziyatda kreativ usullarni qo'llagan holda muayyan farazlarni shakllantiradi. So'ngra, zarur bo'lsa, tekshiruv strategiyasiga o'zgarishlar kiritadi.

2-jadval

TMZlarning tahliliy amallar yordamida tekshirish bosqichlari²


Tahliliy amallar bosqichlari	Auditorning amalga oshiradigan ishlari
1. TMZ bo'yicha kutiladigan qiymatni (prognoz) ishlab chiqish ($\hat{y}$)	Kutilmani ishlab chiqish ikki yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin: 1. O'tgan yillardagi koeffitsiyentlar yoki tendensiyalarni tekshirib o'tgan davrga nisbiy o'zgarishini taxmin qilish 2. Tarmoqning o'rtacha ko'rsatkichini aniqlash yoki o'xshash korxona yoki mijoz korxonaning tekshirib o'tgan davrga salmoqli nisbatdagi hisob davrlarining ko'rsatkichlari o'rtachasini aniqlash
2. Balansdagi tovar moddiy zaxiralar (1 shakldagi, 150 s., 160 s., 170 s., 180 s.) qoldig'i (y) bilan kutilgan qiymat ($\hat{y}$) o'rtasidagi farqlanish (Δ) muhim deb tan olinish qiymatini belgilash	Tekshirib o'tgan davrdagi ishchi muhimlik darajasi, ya'ni ruxsat etilgan xatolik darajasi (tolerable misstatement) auditor mulohazasiga ko'ra yuqori yoki past nisbatda olinishi mumkin

3.TMZ bo'yicha kutilgan qiymat ($\bar{y}$) va mijozning schyot qoldiqlarini (y) o'rtasidagi farqni (Δ) hisoblash	Farq aniqlanganda muhimlik darajasidan kichik yoki ruxsat etilgan xatolik chegarasi doirasida bo'lsa, mijoz korxonaning ichki nazorat muhiti va darajasiga qarab nazorat vositalari amallari (testlari), batafsil testlar, audit amallar ko'lamini belgilanadi. Bu ko'proq auditor(lar) malakasi, tajribasi, audit xulosasidan manfaatdor tomonlar, sohaning o'ziga xosligi, tashqi va ichki omillar hisobidan hamda muhim xatoliklar riski (MXR-RMM) darajasidan kelib chiqib tahliliy amallarga 10 - 40 %, batafsil (mohiyatan) tekshirishlarga 10 – 90 % va nazorat testlariga 0 – 60 % nisbatda o'tkaziladi
4.Muhim farqlanishlarni (Δ) tadqiq qilish taktikasi	Farq aniqlanganda ishchi muhimlik darajasidan katta yoki ruxsat etilgan xatolik chegarasi doirasidan chiqqan bo'lsa, bunday og'ishishlar sababi o'rganiladi. O'rganishlar o'z ichiga korxona rahbariyatiga so'rovlar yuborish va mijoz javoblariga taalluqli bo'lgan tegishli auditorlik dalillarini olish va yuzaga kelgan vaziyatda zaruratga qarab boshqa auditorlik amallarini bajarish zarur. Mijoz rahbariyatining javoblariga tegishli bo'lgan auditorlik dalili korxona va uning muhitini bilishni hisobga olgan holda bunday javoblar baholash yo'li bilan o'rganiladi.

O'zbekistonda auditorlik faoliyati bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, albatta, ushbu bozorning rivojlanishiga olib kelmoqda. Auditorlik kompaniyalari sonining va ularda faoliyat olib borayotgan auditorlarning salohiyati ham shunga mos ravishda oshmoqda. Ammo auditorlik kompaniyalari tomonidan AXSlarni o'z amaliyotida qo'llashda sifat jihatidan qanday o'zgarishlar ro'y berganligini baholash zarurati mavjud.

Baholashlarni tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib empirik usullar yordamida o'tkazish mumkin. Empirik usullar ichida anketa so'rovnoma o'tkazish usuli sohadagi dinamikani sifat jihatdan o'lchash imkonini beruvchi keng tarqalgan tadqiqot usuli hisoblanadi.

Quyida O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan 50 ta auditorlik kompaniyasida 520-sonli "Tahliliy amallar" AXSni biznes subyektlari va boshqa tashkilotlar auditida amalda qo'llash holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ilmiy xulosalar chiqarish maqsadida 10 ta savoldan iborat bo'lgan Likert usulidagi anketa so'rovnoma o'tkazildi (4-rasm).



1-rasm. Audit jarayonida quyida ko'rsatilgan tahliliy amallardan qay birini qanday darajada qo'llanasiz? (1 - eng ko'p qo'llanaman, 2 - ko'proq, 3 o'rtacha, 4 juda kam qo'llanaman, 5 umuman qo'llanmayman)

"Audit jarayonida quyida ko'rsatilgan tahliliy amallardan qay birini qanday darajada qo'llaysiz?" savoliga berilgan javoblar tahlili shuni ko'rsatdiki, auditorlar eng ko'p taqqoslash usulidan foydalanishlarini e'tirof etishgan. Ko'proq foydalaniladigan usullardan vertikal tahlilni 66,6% ishtirokchi ko'rsatgan bo'lsa, koeffitsiyentlar tahlilini esa 53,3% ishtirokchilar ko'rsatgan. Tahliliy amallar sifatida qo'llanilmaydigan usullarga regressiya, mantiqiylik (ratsionallik), data mining tahlillari hamda Benford qonuni kiritilgan (1-rasm).

Mijozning moliyaviy ma'lumotlarini tekshirishda iqtisodiy-matematik usullar korxonada kechayotgan moliyaviy-xo'jalik hodisalarining o'zaro bog'liqlik kuchini hamda ular o'rtasidagi aloqalarni aniqlash va tekshirilayotgan davr ma'lumotlarini yuqori aniqlikda, obyektiv audit tekshiruvidan o'tkazishga imkon yaratadi. Tadqiqot jarayonida korrelyatsion-regression tahlil asosida ajratib olingan omillar ta'sirida natija ko'rsatkichiga ta'sirini aniqlash orqali ishlab chiqilgan ekonometrik model asosida kutilgan qiymatlarni hisob ko'rsatkichlariga taqqoslash mumkin.

Tadqiqot ishida ko'p omilli ekonometrik modelda qatnashadigan omillar sifatida — natijaviy belgi sifatida "Taxiatosh don mahsulotlari" AJdagi sof tushum (ming so'm) (y), yalpi sotilgan mahsulot tannarxi (ming so'm) (x_1), debitorlik qarzi (ming so'm) (x_2), korxonada ishlagan ishchilar soni (kishi) (x_3), iste'mol qilingan tabiiy gaz (ming so'm) (x_4), elektr



energiyasi (ming so'm) (x_5), sarflangan suv (ming so'm) (x_6) kabi jami 6 ta omil tanlab olindi.

Determinatsiya koeffitsiyenti R^2 (R-kvadrat) bog'liq o'zgaruvchi (y) ning o'rtachasiga nisbatan tushuntirilgan variatsiya (tarqalish) ulushini ko'rsatadi. $R^2 = 0,7382$ bo'lishi sotilgan mahsulotdan olingan sof tushumning 73,82%i korxonada sotilgan mahsulot tannarxi (x_1), debitorlik qarzi (x_2) hamda iste'mol qilingan tabiiy gaz (x_4) miqdori bilan tushuntirilishini anglatadi.

Yuqorida ta'kidlangan holatlarni hisobga olgan holda quyidagi regression model ishlab chiqildi (1-formula):

$$\hat{y} = 2092645310 + 0,321 * x_1 + 0,305 * x_2 + 442,11 * x_4 \quad (1)$$

Ushbu model asosida tekshirilayotgan davrning (2024-yil, 12 oy) sotishdan olingan sof tushumining hisobot qiymati (y) bilan ushbu model asosida aniqlangan kutilgan qiymat (taxminiy qiymat) ($\hat{y}$) taqqoslab ko'riladi. Buning uchun regression tenglamaning koeffitsiyentlari (B_i) tekshirilayotgan 12 oylik davrning o'zgaruvchilari (x_i)ga qo'yilib, hisoblab chiqiladi. Har oy bo'yicha kutilgan qiymat ($\hat{y}_i$) aniqlangandan so'ng, u hisobotdagi ko'rsatkichlar (y_i) bilan taqqoslanadi.

Muhimlik diapazoni ichida 5–10% darajasi auditorlardan ko'proq mulohaza talab qiladigan oraliq hisoblanadi. Chunki bu og'ishishning sabablari o'rganilishi zarur. Unga ta'sir qilayotgan turli xil omillar tekshirilishi, audit guruhi o'rtasida aqliy hujum usulidan foydalanilishi hamda boshqa usullar yordamida chuqur mohiyatan o'rganishlar olib borilishi talab qilinadi.

Muhimlik chegarasi auditor tomonidan belgilanadi. Uni belgilashda auditor oldindan o'ziga ma'lum bo'lgan ichki va tashqi omillarni hisobga oladi. Muhimlik diapazonlarini (MD) quyidagi formula orqali aniqlash mumkin (2-formula):

$$MD = \frac{\text{Hisobotdagi ma'lumot (y)} - \text{kutilgan qiymat (\hat{y})}}{\text{Hisobotdagi ma'lumot (y)}} * 100\% \quad (2)^1$$


Model asosida aniqlangan (taxminiy) qiymat, ya'ni kutilgan qiymat ($\hat{y}$) 2024-yilning hisobot qiymati (y) bilan taqqoslandi. Hisobot qiymatlari bilan kutilgan qiymatlar solishtirilganda barcha davrlarda (oylarda) farqlar aniqlangan.

Biz belgilab olgan 5% lik muhimlik darajasiga (og'ishishga ruxsat) nisbatan tahlil qilinganda yanvar va may oylarida muhim bo'lmagan og'ishishlar ro'y berganligi, ya'ni taxminiy xatolik mavjudligi aniqlandi. Qolgan o'n oyda mahsulot sotishdan olingan tushum bo'yicha kutilgan qiymatlardan hisobot qiymatlarining jiddiy og'ishishlari kuzatilgan. Demak, auditor tomonidan ushbu oylardagi mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hisobi bo'yicha ma'lumotlarning batafsil o'rganilishi amalga oshirilishi lozim.

Umumiy 12 davr (oy) bo'yicha kutilgan qiymatdan 60 587 376,73 ming so'm miqdorida jiddiy og'ishish mavjud bo'lib, ushbu og'ishishlarning har biri alohida davr bo'yicha sabablari o'rganib chiqilgandan so'ng jami muhimlik summasiga taqqoslanadigan xatolar (haqiqiy va taxminiy) yig'indisiga qo'shilgan holda baholanishi zarur.

Audit tekshiruvda muhim masalalardan biri bo'lgan mijoz faoliyatining uzluksizligi doimiy ravishda baholab borilishi kerak. Bizningcha, mijozning moliyaviy hisobotlarini ochib berishda faoliyat uzluksizligi haqidagi farazning maqsadga muvofiqligini baholashda tahliliy amallar sifatida maxsus modellardan foydalanish sifatli auditorlik dalillarini olishga yordam beradi.

“Taxiatosh don mahsulotlari” AJning moliyaviy hisobot ma'lumotlari so'nggi 11 yil, ya'ni 2014–2024-yillar bo'yicha buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlari asosida Altman Z-modelining 5 omilli, ro'yxatga kirmagan korxonalar uchun qo'llaniladigan shakli tahliliy amal sifatida qo'llanildi hamda jamiyatning kelgusi 12 oy davomida to'lovga layoqatsizligi bo'yicha xavf darajasiga baho berildi.



2 - rasm. “Taxiatosh don mahsulotlari” AJning Z - modeli me'yoriy koeffitsiyentlariga taqqoslash grafiği³

“Taxiatosh don mahsulotlari” AJning Altman Z-qiymati barcha yillarda xavfli, ya’ni “qizil zona” — 1,23 dan kichik bo’lgan diapazonda o’rin egallagan (2-rasm).

Altman Z-baholash bilan birga hisoblab topilgan ko’rsatkichlarni muqobil usul yordamida tekshirib ko’rish zarur. Beneish modeli — bu muayyan korxonaning buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida hisoblangan moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalanuvchi matematik-statistik model bo’lib, korxonaning hisobot daromadlari manipulyatsiya qilinganligi ehtimoli mavjud yoki yo’qligini aniqlashga qaratilgan.

M-baholash modeli tarmoq ma’lumotlaridan foydalangan holda qo’llaniladi va 2020–2024-yillardagi manipulyatsiya darajasini taqqoslaydi.

3-jadval

“Taxiatosh don mahsulotlari” AJning Binaysh M - modeli bo’yicha tahlili⁴

Yillar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
M - baholash (taxiatosh don mahsulotlari)	-2,27	-0,86	-9,07	-3,29	-3,06
M - baholash (standartlashgan)	-1,78				
Me’yordan farqlanish	+0,49	-0,92	+7,29	+1,51	+1,28
Auditorning baholashi	Muhim emas	Muhim	Muhim emas	Muhim emas	Muhim emas

Beneish M-baholash modelida 8 komponentli standartlashgan me’yor –1,78, qat’iy ishonchli me’yor esa –1,49 hisoblanadi. Korxonada daromadlarni manipulyatsiya qilish va firibgarlik risklari past bo’lsa, hisoblab topilgan M-baholash ko’rsatkichlari me’yoriy ko’rsatkichlardan past bo’lishi kerak. Agar ko’rsatkichlar yuqori chiqsa, auditorlar tekshiruv miqyosini oshirishi hamda mohiyatan tekshiruvlarga urg’u berishlari zarur bo’ladi.

3-jadvalda keltirilgan “Taxiatosh don mahsulotlari” AJning Beneish M-baholash modeli bo’yicha tahliliga e’tibor qaratadigan bo’lsak, tekshirilayotgan 2024-yilda ko’rsatkich me’yoridan 1,28 punktga kichik chiqmoqda. Shuningdek, 2020-, 2022- va 2023-yillarda ham standart me’yordan kichik bo’lganligi aniqlandi. Faqat 2021-yilda ko’rsatkich me’yordan 0,92 punktga katta bo’lgan.

Shundan kelib chiqib, tekshirilayotgan 2024-yilda jamiyatda firibgarlik va daromadlarni manipulyatsiya qilish risklari past, degan xulosaga kelish mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Biznes jarayonlari auditida tahliliy amallarni qo’llashning metodologik jihatlarini takomillashtirish masalalarini tadqiq etish asosida quyidagi tavsiyalar va ilmiy yangiliklar ishlab chiqildi:

— moliyaviy hisobotlar auditida dastlabki o’rganishlar, rejalashtirish, audit o’tkazish hamda auditni yakunlash bosqichlariga bo’lgan holda muhim xatoliklar riski (RMM) darajalariga mutanosib ravishda tahliliy amallarga 10–40%, batafsil (mohiyatan) tekshirishlarga 10–90% va nazorat testlariga 0–60% nisbatda audit vaqtini sarflashni tatbiq etish taklif etildi;

— tahliliy amallarni qo’llashning to’rt bosqichli yondashuvini buxgalteriya balansi hamda moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot auditiga tatbiq qilish orqali hisob obyekt bo’yicha kutilgan qiymatni ($\hat{y}$) aniqlash, muhim og’ishishlarni tan olish, kutilgan va hisob qiymatlari (y) o’rtasidagi farqni (Δ) hisoblash hamda muhim og’ishishlarni tahlil qilish amaliyoti tavsiya etildi;

— auditorlik faoliyatida tahliliy amallarni qo’llashning hozirgi holati Likert shkalasi usulida empirik tahlillar o’tkazish orqali baholanib, ularni audit bosqichlarida qo’llash amaliyotini takomillashtirish taklif etildi;

— ko’p omilli regression model tuzish orqali tahliliy amallarni qo’llash uchun kutiladigan qiymatni ($\hat{y}$) aniqlash, uni tekshirilayotgan hisob ma’lumotlari (y) bilan taqqoslash hamda og’ishishlarning (Δ) muhimlik ko’rsatkichlarini muhim emas (<5%), muhim (5–10%) va jiddiy (>10%) darajalar sifatida baholash taklifi ishlab chiqildi;

— tahliliy amallarni faoliyat uzluksizligi bo’yicha o’rganishlarda qo’llashda maxsus modellardan foydalanish, xususan, Z-model orqali mijozning hisobot davridan keyingi 12 oy davomida to’lovga layoqatsizligini bashoratlash hamda mavjud risklarni boshqarish, shuningdek, M-model orqali daromadlarning manipulyatsiya qilinishi yoki firibgarlik belgilarini aniqlash taklif etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi “O’zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-3946-son Qarori. <https://lex.uz/docs/3914502>
- Sattorov, A. X. *Auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish*: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati: 08.00.08. – Toshkent, 2024. – B. 24.



3. Xajimuratov, N. Sh. *Moliyaviy hisobot auditi metodologiyasini takomillashtirish*: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati: 08.00.08. – Toshkent, 2021. – B. 17.
4. Choriyev, I. H. *Auditorlik faoliyatida tahliliy amallarni takomillashtirish*: PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 61 b.
5. International Federation of Accountants (IFAC). *Handbook of International Auditing, Assurance, and Ethics Pronouncements*. International Standards on Auditing 520 (ISA 520) “Analytical Procedures”, para. 2. – New York, 2003.
6. Valaskova, K., Fedorko, R. Beneish M-score: A measure of fraudulent financial transactions in global environment? // *SHS Web of Conferences*. – 2021. – Vol. 92. – Article 02064. <https://doi.org/10.1051/shsconf/20219202064>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100